

Date: 3rd January-2026

ADABIYOT DARSLRIDA PAHLAVON MAHMUD IJODINI O‘QITISH
METODIKASI

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna

(Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi)

Annotatsiya: Maqolada Pahlavon Mahmudning ijodi tahliliga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan
Kalit so‘zlar: “yor”, “do‘st”, “ma‘shuqa”, “jonon”, marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik.

Pahlavon Mahmud Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko‘ra Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so‘ng faqat ruboiy yozgan shoir Pahlavon Mahmuddir. U Umar Xayyomning oddiy taqlidchisi bo‘lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan barobarturgan. Pahlavon Mahmud shahar hunarmand-kosiblarining futuvvat-javonmardlik harakati (13 – 14-asrlar) tashkilotchisi, ma‘naviy rahnamosi bo‘lgan. Ko‘pchilik ruboiylari mardlik, marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik kabi javonmardlik qoidalari asosida yozilgan. Ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunning teranligi, obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularda «yor», «do‘st», «ma‘shuqa», «jonona» kabi so‘zlar turli ma‘nolarda, so‘fiyona she‘rlaridan «Olloh» ma‘nosida keladi. Pahlavon Mahmudga nisbat beriladigan «Hazrati Pahlavon ruboiylari»ning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, Pahlavon Mahmud ruboiylarida Qur’oni karim va Hadisi sharif ta’siri kuchli. Zero, Sharqdagi deyarli barcha shoirlar bu ikki ulug‘manbadan bahramand bo‘lib, ijod qilganlari sir emas.

RUBOIYLAR

Umrimiz daraxtin past qilma, Rabbiy,

Borliq sharobidan mast qilma, Rabbiy.

O‘zing karam birla mard yigitlarni

Nokaslarga zeri dast qilma, Rabbiy.

Dedim: ayt, umrning ma‘nosi nima?

Dedi: chaqmoq, yo sham, yoki parvona

Dedim: bu dunyoga bino qo‘ygan kim?

Dedi: yo go‘l, yo mast, yoki devona.

Pahlavon Mahmud umrning o‘tkinchiligini bir chaqmoq chaqishiga yoki yonib tugaydigan shanga qiyoslab, unga go‘l yoki ahmoq insongina mehr qo‘yishini aytadi.

Adib yana bir ruboiysida oddiy qora tosh hech qachon qimmatbaho tosh kabi tovlanib, ko‘zlarni quvontirmaganidek, qo‘rqoqlardan ham hech qachon mard chiqmasligini ta’kidlaydi.

Haqiqiy mard, g‘ayratli kishi o‘z ahli ayolini ko‘chada darbadar qilib qo‘ymasligini uqtirib, uning oqibati yaxshi bo‘lmasligini aytadi va yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etadi.



Date: 3rd January-2026

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodidan oʻrnak olsak, arziydi. Uning ruboiylari yuksak maʼnaviyatli, oʻtkir mushohadali asar sifatida yoshlarni tarbiyalab kelmoqda.

Maʼlumotlarning toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini toping.

1 Adib Ahmadning otasi Mahmud boʻlib, u Yugnakda istiqomat qilgan.

A)Toʻgʻri

B) Notoʻgʻri

2.. Adib Ahmad haqida Alisher Navoiy oʻzining «Mahbub ul-qulub» asarida juda muhim maʼlumotlarni beradi:

A)Toʻgʻri

B) Notoʻgʻri

3. Alisher Navoiy aytgan fikrlar, shuningdek, asarning uygʻur va arab harflari bilan koʻchirilgan nusxalarining koʻplab tarqalishi asarning Navoiy yashagan davrda ham ancha mashhur boʻlganini koʻrsatadi.

4.. «Hibat ul haqoyiq» asarini «qashqarcha til» bilan yozilgan.

A)Toʻgʻri

B) Notoʻgʻri

5. Shoir «Hibat ul-haqoyiq»ni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi.

A)Toʻgʻri

B) Notoʻgʻri

6. Alisher Navoiy aytgan fikri:

Tamomi erur qashqariy til bila, Ayitmish adib riqqati dil bila. Agar bilsa qashqar tilin har kishi,Bilur ul adibning nekim aymishi.

A)Toʻgʻri

B) Notoʻgʻri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. B.Toʻxliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va oʻrta maxsus uchun darslik-majmua). Oʻzbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018
2. B.Toʻxliyev. Adabiyot (ALlarning I kurs talabalari uchun majmua). – T. 2013.

